



## AHOLIGA SAVDO XIZMATLARINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH

*i.f.f.d. (PhD) Maxmatqulov G'olibjon Xolmuminovich*

*Iqtisodiyot va pedagogika universiteti  
nodavlat ta'lim muassasasi*

*ORCID: 0000-0003-3717-172X*

*[gmaxmatqulov11@mail.ru](mailto:gmaxmatqulov11@mail.ru)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada aholiga savdo xizmatlarini innovatsion rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari va ekonometrik modellashtirish zaruriyati tadqiq etilgan. Savdo xizmatlarini innovatsion rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish yoki sohaning umumiy ijtimoiy-iqtisodiy qonunlarini turlarga, guruhlarga ajratishga emas, balki, tadqiqotlarga amaliy mazmun beruvchi, ustuvorlikka yo'l ko'rsatuvchi, natijalarini baholash uchun ilmiy mezon bo'luvchi mavjud qonuniyatlarning amaliy xarakterini ko'rsatish, istiqboldagi oqibati, natijalarini baholash ahamiyati ko'rsatib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** savdo xizmatlari, innovatsiya, innovatsion rivojlantirish, ekonometrik modellashtirish, moyedllashtirish zaruriyati, ekonometrik mezon, innovatsion xususiyat

## ОСОБЕННОСТИ И ЭКОНОМЕТРИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ ТОРГОВЫХ УСЛУГ НАСЕЛЕНИЯ

*д.ф.н.э (PhD) Махматкулов Голибжан Холмуминович*

*Негосударственное образовательное учреждение  
«Университет экономики и педагогики»*

**Аннотация.** В статье рассматриваются уникальные особенности инновационного развития торговые услуги на населения и необходимость эконометрического моделирования. Здесь не разлука совершенствовать организационно-экономические механизмы инновационного развития сферы услуг торговли или общие социально-экономические закономерности отрасли на виды и группы, а показаны практический характер действующих законов, придающих практический смысл исследованиям, определяющих приоритетность и служащих научным критерием оценки результатов, выделены последствия в будущем, важность оценки результатов.

**Ключевые слова:** торговые услуги, инновации, инновационное развитие, эконометрическое моделирование, необходимость моделирования, эконометрический критерий, инновационный особенность.

## FEATURES AND ECONOMETRIC MODELING OF INNOVATIVE DEVELOPMENT OF TRADE SERVICES TO THE POPULATION

**Makhmatkulov Golibjon Kholmuminovich**

*Non-state educational institution*

*"University of Economics and Pedagogy"*

**Annotation.** *The article discusses the unique features of the innovative development of trade services for the population and the need for econometric modeling. There is no separation here to improve the organizational and economic mechanisms for the innovative development of the trade services sector or the general socio-economic patterns of the industry into types and groups, but the practical nature of the laws in force that give practical meaning to research, determine the priority and serve as a scientific criterion for evaluating results, highlight the consequences in the future, the importance of evaluating results.*

**Key words:** *trade services, innovation, innovative development, econometric modeling, the need for modeling, econometric criterion, innovative feature.*

### **Kirish.**

Jahonda kishilik jamiyatining rivoji turli xarakterdagi, toifadagi, darajadagi omillar ta'sirida vujudga keluvchi ijtimoiy-iqtisodiy qonuniyatlar asosida shakllanib boradi. O'z navbatida jamiyat rivojini uni o'rab turgan iqtisodiy sfera ko'rsatkichlari asosida baholanadi. Bu ko'rsatkichlar va qonuniyatlar umumiy holda hududning ijtimoiy-iqtisodiy holatini belgilab beradi. Bu oddiylik aslida omilli jarayon sifatida o'ta murakkab tizimlardan tashkil topgan. Uni tadqiq etishda shu ikki jihatni e'tiborga olmaslik mumkin emas. Iqtisodiy holat iqtisodiyot tarmoqlarining umumiy va o'z o'rnida sektorli rivojlanish darajasi bilan baholanadi. Bugungi kunda xizmatlar tarmog'ining dunyo mamlakatlari iqtisodiy salohiyatini oshirishdagi salmog'i katta hisoblanadi. Xususan, yashash joy va umumiy ovqatlanish xizmatlarining jahon iqtisodiyotida roli ortib bormoqda.

Hozirgi vaqtda iqtisodiyot tarmoqlarini iion rivojlantirish sharoitida yashash joy va umumiy ovqatlanish tarmog'iga innovatsion texnologiyalarni kiritish, mavjud hududiy iqtisodiy salohiyatdan optimal foydalanish asosida rivojlanishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlashda ekonometrik tadqiqotlarga ustuvorlik berilmoqda.

Yangi O'zbekistonni barpo etishda eng muhim jihatlar sifatida iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish, jumladan, aholi turmushi sifatini oshirishda yashash joy va umumiy ovqatlanish xizmatini rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni 1-ilovasida keltirilgan 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "xizmatlar sohasini rivojlantirishga qulay infratuzilmani yaratish, ixtisoslashgan tadbirkorlikni rag'batlantirish, sohada aholi bandligini oshirish, mamlakatimiz turizm salohiyatini oshirish maqsadida yangi mehmonxona va umumiy ovqatlanish punktlarini ishga tushirish, xizmat ko'rsatish sifatini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish" kabi bir qator ustuvor vazifalar belgilangan (Farmon, 2022).

Bu vazifalar ijrosini ta'minlashda, yashash joy va umumiy ovqatlanish zamonaviy tadqiqot usullari, ekonometrik modellardan foydalangan holda soha taraqqiyotining istiqbolli yo'nalishlarini belgilab berish masalalariga bag'ishlangan ilmiy izlanishlarni yanada kengaytirish muhimlik kasb etmoqda. Resurs taqchilligi kuzatilayotgan, axborot oqimi ortayotgan, raqamlashtirish zaruriyati paydo bo'layotgan bugungi sharoitda savdo korxonalari raqobatbardosh faoliyatini tashkil etishda innovatsion yondashuvlarni talab etmoqda.

### Adabiyotlar sharhi.

Ilmiy nuqtai nazardan faoliyat sifatida, jarayon sifatida, omil sifatida va boshqa xususiyatiga ko'ra ta'riflash mumkin. O'zbekistonlik olimlarning (Abdukarimov va boshq., 2016; Soliyev, Buzrukxonov, 2010; Fayziyev, 2010) savdo xizmatlariga bergan ta'riflari keng manbalarda keltirilgan bo'lib, tadqiqotchilar ilmiy ishlarida ulardan foydalanishadi.

Xorijiy iqtisodchi olimlari savdo xizmatlari bozorida zamonaviy marketing tamoyillari asosida samaradorlikni oshirish modellarini (Ohud Almutairi et al. 2020; Raj Agnihotri et al., 2021; Kotler Filip, 2007), zamonaviy rivojlanish talablari asosida ulgurji va chakana savdo korxonalarini tashkil etish va yangi texnologiyalar asosida rivojlantirishning turli modellarini (John Edwards et al., 2022; Harlan Spotts et al. 2021; Pambuxchiyans, 2014) taklif etishgan bo'lsada, bu modellar iqtisodiy-boshqaruv, marketing, tashkiliy xarakterdagi iqtisodiy qonuniyatlarni umumiy holda tushuntirish, ko'rsatkichlarning alohida holatida, bog'liqsiz baholash va tadqiq etish bilan cheklangan.

Iqtisodchi olim S.K.Nguen, Bristol Universiteti professori J.Beach ning ilmiy qarashlarida har qanday ijtimoiy-iqtisodiy, moliyaviy, texnik-texnologik, axborot, intellektual, dasturiy resurslar yangilanish qonunlari ta'sirida innovatsion xarakterdagi resurslarga aylanishi mumkinlik g'oyasi ilgari suriladi (Raj Agnihotri et al. 2021).

Iqtisodchi olim Ye.Karchenko mintaqaning innovatsion salohiyatga egaligi savdo xizmatlarini innovatsion rivojlantirish uchun zaruriy va yetarli imkoniyatlarning darvozasi ekanligini ta'kidlaydi (Harlan Spotts et al. 2021).

Savdo tizimida xaridor psixologiyasiga ta'sir etish motivlarini tadqiq etgan ishlarida O.Mokryun, V.Bogina va T.Kuflg kabi olimlar savdo tizimini optimal tashkil etish murakkablik jihatlari modellashtirish usullari yordamida sodda obyekt sifatida o'rganish g'oyasini ilgari surib, xususan modellashtirish jarayonida trend modellarining qo'llanilish mezonlarini zaruriy hodisa sifatida baholashadi (Pambuxchiyans, 2014).

Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish jarayonlarini rivojlantirishni modellashtirish va prognozlash, ishlab chiqarishni ko'p mezonli optimallashtirish, sanoatning hududiy rivojlanishi va uning ko'p omilli empirik modellarini tasniflash masalalari S.V.Klementyeva, V.S.Muravyeva, A.I.Orlov, R.M.Nureyev, I.S.Svetunkov, L.N. Slus kinlarning ilmiy izlanishlaridan keng joy egallagan (Klementyeva, 2006).

### Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolaning maqsadi savdo xizmatlarini innovatsion rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari, savdo xizmatlari tarmog'ini rivojlantirishning kompleks tizimli masalalari o'rganishdan iborat.

Ushbu maqola mavzusini yoritishda statistik, taqqoslama, guruhlashga ajratish, ekspert baholash, tahlil va boshqa usullardan foydalanilgan.

### Tahlil va natijalar muhokamasi.

Jahon iqtisodiyoti tarmoqlari orasida shunday tarmoqlar borki, ularning rivojlanish tendensiyasi juda qadimiy sarxadlardan boshlanadi. Bularga qishloq xo'jaligi, sanoat kabi tarmoqlarni kiritish mumkin. Xizmatlar tarmog'i, xususan, savdo xizmatlari uchun ham ayni mulohaza o'rinlidir. Savdo xizmatlari o'z rivojlanish tendensiyasi davomida turli ta'rif va tasniflarga ega bo'lib, ularning farqlanishi jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi turli o'zgarishlar zamirida, turli ta'sirlar ostida vujudga keldi. Bugungi kunda savdo xizmatlarining ta'riflanishida olimlar turli yondoshuvlarga tayanadi. Bunga sababni uning turli xususiyatli ekanligi bilan izohlash mumkin. Haqiqatan, uni ilmiy nuqtaiy nazardan faoliyat sifatida, jarayon sifatida, omil sifatida va boshqa xususiyatiga ko'ra ta'riflash mumkin. O'zbekistonlik olimlarning savdo xizmatlariga bergan ta'riflari keng manbalarda keltirilgan bo'lib, tadqiqotchilar ilmiy ishlarida foydalanishadi (Abdukarimov va boshq., 2016).

Yuqorida zikr etilgan olimlar va boshqa mahalliy va xorijiy olimlar ta'rif va tavsiflari ga tayanib savdo xizmatlariga o'z mualliflik tavsifimizni quyidagicha ifoda etdik. Unga ko'ra "savdo xizmatlari – bu sotuvchi va xaridor manfaatlari kesishish nuqtasida sodir bo'luvchi jarayon, iste'molchi tomonidan ehtiyojni qondirish, xizmat ko'rsatuvchi tomonidan daromad topish maqsadlarining mushtarakligi asosida harakatga keluvchi faoliyat, mulkga huquqiy egalik maqomini o'zgartiruvchi vosita, iqtisodiyot tarmoqlarini hamda o'zini-o'zi rivojlantirish xususiyatiga ega omil, jami insoniyatga tegishli innovatsion rivojlanuvchi ixtirosi, hamda ularning madaniy hayotini, ma'naviy ruhiyatini shakllantirishda ishtirok etuvchi millatlararo milliy qadriyatlardan biridir". Bu yerda savdo xizmatlarining shakliy, xulqiy, abstrakt, moddiy, ma'naviy aniqlanishiga, shuningdek, innovatsion rivojlanuvchi xususiyatiga urg'u berildi.

Jahon miqyosida, hozirgi vaqtda innovatsiya termini eng ko'p qo'llanilayotgan so'zlardan biriga aylanib ulgurdi. Bunga sabab, so'nggi yillarda global maydonda, turli operatsiyalarni amalga oshirish, boshqarish va ishlab chiqarish kabi barcha faoliyatlar hamda axborot almashinish jarayoni raqamlashgan elektron vositalardan foydalanilgan tarzida kechmoqda. Shuningdek, jahon mamlakatlari o'zlarining milliy iqtisodiyoti barqarorligini eng taraqqiy etgan yoki etayotgan yangi texnologiyalar asosida ta'minlash mumkinligini va muximligini yangi va yaxshi amaliy tajriba sifatida o'zlashtirishga erishdilar. Bu jarayon innovatsiyalashuv jarayoni, asos bu yerda innovatsiya, mexanizm esa innovatsion vosita sifatida e'tirof etildi. Mazkur jarayon nafaqat kompleks harakatda, balki tarmoqlararo xususiyatli tarzda rivojlanib bordi. Ushbu voqeylikning rivojida, jarayon kechayotgan umumiylikning muxim bir bo'lagi sifatida jahon savdosining rivojlanishi innovatsiyalarga bog'lanib qoldi. Bu esa dunyo olimlari bugun ko'p takrorlayotgan yagona xulosani yuzaga chiqarishga sababchi bo'ldi. Bu xulosa – "Jahon savdosining zamonaviy rivojlanishi innovatsiyalarsiz mumkin emas" jumlasidan iboratdir (Blondo, 2005; Sharf, 2012).

Shuningdek, raqamli texnologiyalarning iqtisodiyot tarmoqlariga jadallik bilan kirib kelishi, zamonaviy jahon iqtisodiyotida elektron biznesni jahon savdosi rivojlanishining asosiy omillaridan biriga aylantirdi.

Innovatsion rivojlanish mamlakatlarning rivojlanish darajasini belgilab beruvchi me'zonlaridan biriga aylandi. GII (Global innovatsion indeksi) reytingining so'ngi yillardagi holatiga ko'ra kuchli o'nlikda Shveysariya, Niderlandiya, Shveysiya, Singapur, AQSH, Finlyandiya, Daniya, Germaniya, Janubiy Koreya, Irlandiya kabi iqtisodiy salohiyati yuqori mamlakatlarning kelishi innovatsion rivojlanishning mohiyatini ochib berishda, uning muximligiga asos bo'ladi (WIPO, 2019).

Bugungi kunda yangi O'zbekiston iqtisodiyotida raqamlashtirish jarayoni jadallik bilan kechmoqda. Bu jarayonning negizida iqtisodiyot tarmoqlariga innovatsion rivojlanish effekti tabiiy xodisa singari kirib bormoqda. So'ngi yillarda bu holatni ishlab chiqarish, tizimli boshqaruv, aloqa va axborotlashtirish, yashash va umumiy ovqatlanish, savdo, ta'lim, tibbiyot va boshqa sohalarda kuzatish mumkin. Barcha tarmoqlarning turli pozitsiyasida olib borilayotgan innovatsion faoliyat mamlakatimiz milliy iqtisodiyotini zamonaviy ko'rinishga keltiruvchi, rivojlanishning istiqboldagi darajasini belgilovchi omil, navbatdagi rivojlanish bosqichiga o'tishning zaruriy sharti sifatida baholanmoqda. Korxonalar raqobatbardoshligining, bozor iqtisodiy munosabatlarining muxim xususiyati sifatida ko'rilmogda.

Savdo xizmatlarini innovatsion rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari rivojlanishning muddatiga, talabiga, xarakteriga, manbasiga, vositasiga, usullariga ko'ra ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik jihatlari farqlanadi (Maxmatqulov, 2022-2024) (1-rasm).



**1-rasm. Savdo xizmatlarini innovatsion rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari**

*Manba: muallif ishlanmasi.*

Ijtimoiy jihatiga ko'ra xususiyatlari ijtimoiy xodisa yoki unda ishtirokchisi sifatida nomoyon bo'lishi bilan izohlanadi. Bularga quyidagilar kiritish mumkin:

- kadrlarni zamonaviy bilimlarni uzlashtirishga rag'batlantirish – innovatsion rivojlanish zamonaviy raqamli texnologiyalarning keng joriy etilish fonida ro'y berishi barcha soha kadrlarining zamonaviy bilimlarni uzlashtirish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Sohaviy malaka talablari ta'limning jahon standartlari mos ravishda takomillashib, yangilanib boradi. Global innovatsiyalashuv jarayoni zamonaviy bilimlarga tayanadi. Shuningdek, innovatsion faoliyat yuratayotgan korxonalar xodimlari kerakli o'rinda keng aholi qatlami bilan munosabatlarda maslahatchi-o'rgatuvchi hisoblanishadi;

- mobil savdo maydonlarini tashkil etishni rag'batlantirish – chekka xududlarga ko'chma savdo bozorlarini AKT yordamida tashkil etish bilan amalga oshiriladi;

- turli ijtimoiy qatlam vakillari uchun maxsus xizmat dasturlarini joriy etish – pensionerlar, nogironligi bor insonlar yoki xo'jaliklar, bolalar, boquvchisini yuqotganlar singari aholi qatlami uchun imtiyozlarni shakllantirish, mahsulotlarni yetkazib berish, savdo aksiyalarini tashkil etish va hokozalar;

- keng ijtimoiy g'oya va fikrlarni tez fursatda to'plash, tahlillash va ular asosida rivojlanish manbalarini yaratish – iste'molchilarning savdo xizmatini baholash tizimining ishlashi, aholining o'zlari uchun qulayliklar bo'yicha tasavvurini, g'oyasini, turli soha mutaxassislarining iste'molchi sifatidagi fikrini ma'lumot ko'rinishiga xotiraga ko'chirish imkonining yaratilishi bilan ta'minlanadi;

- jamiyat muxitiga tez moslashishi, jamiyatning rivojlanishini tezlashtirishi – insoniyatning yangiliklarga bo'lgan doimiy ehtiyoji negizida shakllanadi. Jamiyat o'zi istagan narsani tez qabul qiladi. Bu omil har qanday sub'yektning moslashuvchanlik koeffitsiyentini oshirib yuboradi. Innovatsiyaning yutuqlaridan biri har doim unga ijobiy rag'batning mavjudligidadir. Innovatsiya majoziy ma'noda jamiyatda tug'iladi va u bilan birga nafas oladi, ya'ni kishilik jamiyatisiz innovatsiya har qanday qiyofada mavjud bo'lolmaydi. Shu sababli innovatsion rivojlanish o'zining mavjudlik manbasining rivojiga doim rag'bat ko'rsatadi. Shu sababli qaysidir rivojlanish yo'nalishida o'sayotgan jamiyat rivoji yanada tezlashadi.

Iqtisodiy jihatiga ko'ra xususiyatlari — iqtisodiy omil, resurs turi va miqdoriy o'lchovlariga ta'sir etuvchi omil yoki sarflanish darajalarini o'zgarishiga olib keluvchi omillarni vujudga keltiruvchi iqtisodiy jarayon, aholi turmush darajasini belgilaydigan iqtisodiy ko'rsatkichlarini yaxshilashning yangi iqtisodiy manbasi, iqtisodiy o'sishni ta'minlash

usullarini tanlash uchun mezon, ma'lum bir iqtisodiyot tarmog'ining yangi shakldagi evolyusiyasining boshlanishiga, kengayishiga sabab bo'luvchi vosita sifatida nomoyon bo'ladi. Bunga, sog'lom raqobat muxitini yaratishda eng asosiy omil sifatini, resurslar turini oshishiga olib keluvchi iqtisodiy jarayon sifatini, bandlikning yangi sohalarini yaratishga xizmat qiluvchi iqtisodiy manba sifatini, zamonaviy ilg'or raqamli texnologiyalarning tadbiiq etilishi asosida resurs sarfini kamaytirish usullarini targ'ib etuvchi mezon sifatini, savdo xizmatlarining elektron tijorat tarmog'ini kengaytiruvchi vosita sifatini keltirish mumkin.

Texnologik jihatiga ko'ra xususiyatlari – tizimni avtomatlashtirish, modernizatsiyalash, raqamli texnologiyalar va nanotexnologiyalarning, sun'iy ong hamda neyron tarmoqning sohaga keng joriy etilishi fonida kuzatiladi. Xususan, savdo xizmatlari tarmog'ida elektron axborot almashinuvning yo'lga qo'yilishi va axborot oqimining kengayishi, elektron to'lovlar, elektron hamyon, elektron sarmoya kabi innovatsion tushunchalarning kirib kelishi, sohaviy xujjatlarning elektron shaklida yaratilishi va saqlanishi kiberxavfsizlik tizimlari yaratilishini talab qilish xususiyatini beradi.

Yuqorida keltirilgan innovatsion rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari mazkur rivojlanish yo'nalishining ustunlik jihatlarini ta'minlaydi. Bu jihat sohani rivojlantirishda ayni shu yo'nalishning tanlanishiga ilmiy asoslarni shakllantiradi. Shu bilan birga tanlov jarayonining murakkablik kasb etishini ta'kidlash o'rinli bo'ladi. Sababi, rivojlantirish muammolari har doimgidek ko'zga tashlanadi.

Bizning maqsadimiz, iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish sharoitida savdo xizmatlarini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish yoki sohaning umumiy ijtimoiy-iqtisodiy qonunlarini turlarga, guruxlarga ajratishga emas, balki, yuqoridagilarni maqsad qilgan tadqiqotlarga amaliy mazmun beruvchi, ustuvorlikga yo'l ko'rsatuvchi, natijalarini baholash uchun ilmiy mezon bo'luvchi mavjud qonuniyatlarning amaliy xarakterini ko'rsatish, istiqboldagi oqibati, natijalarini baholash, baholash natijalariga tayanib, rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, natijaviylikning yuzaga kelishida ta'sir etuvchilarning ichki va tashqi bog'liqliklarini tizimli yoki blokli tamoyillar asosida tadqiq etish yordamida, istiqboldagi maqsadli ko'rsatkichlarning mumkin bo'lgan chegaraviy o'zgarishlarini aniqlashga yo'naltirilgandir.

Shu sababali, tadqiq etilayotgan iqtisodiy muammolarning ko'lami, mohiyati, ba'zi cheklanishlardan og'ishi kuzatiladi, shuningdek, maqsadni amalga oshirishda belgilangan vazifalarning ijro usullari, mexanizmlari, vositalari o'ziga xosligi ta'minlanadi.

Sohani tadqiq etishda ekonometrik tadqiqotlarning o'tkazilmaganligi, yoki yetarli emasligi, savdo xizmatlari tarmog'idagi iqtisodiy muammolarning qo'yilishida ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Tadqiqotning ekonometrik qamrovi esa muammoga chuqurroq yondashish imkoniyatini oshiradi.

Savdo xizmatlarini innovatsion rivojlantirishni ekonometrik modellashtirish strategik xarakterga ega bo'lishligi uchun uning qamrov darajasi sohadagi dolzarblik jihatdan ahamiyatli, tizimli ta'sir ostida shakllanuvchi, natijasi eng muxim soha indikatorlari o'zgarishiga bevosita bog'langan, ustuvorlik elementlarini mujassam etgan masalalarning o'zaro bog'liq, tizimlashgan kompleksidan iborat bo'lishi talab etiladi.

Tadqiqotimizda shunday kompleks o'ziga xos ravishda shakllantirib olindi. Uning darajasini, to'liqligini, ahamiyatini sohani tadqiq etishda modellashtirish zaruriyatini keltirib chiqaruvchi masalalar dolzarbligini bilan bog'lab tushuntirish mumkin. Quyida ekonometrik tadqiq etilishi zarur bo'lgan savdo xizmatlari tarmog'ining komplekslashgan tizimli masalalari keltirib o'tamiz (1-jadval)

## 1-jadval

## Savdo xizmatlari tarmog'ini rivojlantirishning kompleks tizimli masalalari

Iqtisodiy muammoning qo'yilishi (tor ma'noda)	Tizimlashgan shakli	Yechimga ega bo'lish mexanizmi (ilmiy asoslash)
Mintaqada sohaning rivojlanish tendensiyasida muxim ahamiyatli asosiy va hosilaviy belgilarni ajratish	Sohaning rivojlanish tendensiyasi uchun muxim ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqish, o'zaro va kompleks ta'sirini baholash	Statistik va ekonometrik tahlil o'tkazish, baholashning adekvat empirik modellarini ishlab chiqish
Mintaqaning iqtisodiy salohiya-tini oshirish dinamikasida savdo xizmatlari salmog'ini tarkibiy baholash	Iqtisodiy salohiyatni oshirish dinamikasida nisbiylik ko'rsatkichlari tizimini shakllantirish, tizimning salbiy nisbatini aniqlash	Ekonometrik tahlil o'tkazish, nisbiylik ko'rsatkichlarining o'zaro ta'sirini baholashning adekvat dinamik ekonometrik modellarini ishlab chiqish
Mintaqaning aholiga savdo xizmatlarini innovatsion rivojlantirish salohiyatini baholash	Aholiga savdo xizmatlarini innovatsion rivojlantirish salohiyatini baholash omillari tizimini shakllantirish, bog'lanish shaklini yaratish, salohiyatning samaradorlikni ta'minlash darajasini aniqlash	Ekonometrik tahlil o'tkazish, ta'sir omillarining prognoz qiymatlarini hisoblash uchun adekvat ekonometrik modellar ishlab chiqish
Mintaqada savdo xizmatlari barqaror o'sish tendensiyasini aniqlash mezonlarini yaratish	Savdo xizmatlarini rivojlantirishning istiqbolda shartli iqtisodiy o'sish darajasini belgilab beruvchi rivojlanishning asimptotik chizig'ini aniqlovchi mezonlar tizimini ishlab chiqish	Sohaviy ko'rsatkichlar bo'yicha balans tenglamalarini qurish, Tarmoqlararo tendensiyalar chizig'ini aniqlash, tendensiyaning barqarorlikga erishish shartini ifoda etuvchi murakkab, vaqtga va o'lchovli funksiyaga bog'liq ekonometrik modelini — asimptotik chizig'ini aniqlovchi mezonlar ifodasini qurish
Savdo korxonalarining raqobat-bardosh innovatsion faoliyatini tashkil etish	Sog'lom raqobat muxitida savdo korxonalarining innovatsion faoliyatini tashkil etishning asosiy omillarini aniqlash, innovatsion faoliyat bo'yicha samaradorlik indeksini hisoblash	Savdo korxonalarining raqobatbardosh innovatsion faoliyati bo'yicha samaradorlik indeksini hisoblash algoritmini ishlab chiqish
Mintaqada savdo xizmatlarini innovatsion rivojlantirishning istiqbolli asosiy ko'rsatkichlarini prognozlash	Savdo xizmatlarini innovatsion rivojlantirishning istiqbolli ustuvor yo'nalishlarini belgilash	Ko'p ssenariyli prognozlashtirishning adekvat modellarini ishlab chiqish

**Manba:** muallif ishlanmasi.

Xududiy jihatdan ma'lum bir iqtisodiy sektorni rivojlantirish takliflari uchun avvalo uning mintaqada rivojlanish tendensiyasini tadqiq etishga to'g'ri keladi. Bunda apparat statistik tahlil bo'lib, bu bilan cheklanish muxim xulosalarga kelishga yetarli bo'lmaydi. Asosiy tendensiya ko'rsatkichlari ikki xududiy kenglikda statistik tahlil etilganda yuzaga keluvchi hosilaviy ko'rsatkichlar (nisbiy, absolyut farqlar va h.z.) oddiy axborot ko'rsatkichi sifatida baholanib, omil sifatida baholashga imkon bermaydi. Bu ekonometrik tahlil qilish zaruriyatini keltirib chiqaradi (Maxmatqulov, 2023-2022).

Savdo xizmatlarini innovatsion rivojlantirish mintaqaning innovatsion rivojlanish va

iqtisodiy salohiyatiga asoslanadi. Bu yerda tarmoqning o'zini-o'zi rivojlantirish xususiyatining muxim elementi aks etadi. Shu sababli xududning iqtisodiy salohiyatini oshirish dinamikasida savdo xizmatlari salmog'ini tarkibiy baholash masalasiga alohida e'tibor qaratish kerak. Bu yerda iqtisodiy salohiyati dinamikasining nisbiylik ko'rsatkichi bilan unga ta'sir etuvchi omillar sifatida savdo xizmatlari makroiqtisodiy ko'rsatkichlari bo'yicha olingan nisbat chiziqlarining o'zgarish tendensiyasi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash, ta'sir darajasini baholash muxim ahamiyatga ega bo'ladi. Shuningdek, savdo xizmatlarini innovatsion rivojlantirish salohiyatini baholash ko'rsatkichlarining istiqboldagi o'zgarish tendensiyasining ilmiy bashorati zarur (Jo'rayev, 2023).

### Xulosa va takliflar.

Mintaqada savdo xizmatlari barqaror o'sish tendensiyasini aniqlash eng asosiy masalalar tizimini shakllantirishni talab etadi. Bu yerda shunday mezonlar ishlab chiqilishi talab etiladiki, bu istiqbolda uzoq muddatli sohaning maqsadli iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari va ularning parametrlari uchun asimptotik chizig'ini aniqlab berishi kerak bo'ladi. Bu yerda asimptotik funktsiya ekonometrik bog'liqlar natijasida kelib chiqadi.

Sog'lom raqobat muxitida savdo korxonalarining innovatsion faoliyatini tashkil etishda raqobatchi sub'yektlarning o'zaro, hamda turlararo sog'lom raqobatini ta'minlovchi omillarni aniqlash muammosi qo'yiladi. Bu masalani yechishning yagona quroli raqobat jarayonini ekonometrik modellashtirishdir.

Savdo xizmatlarini innovatsion rivojlantirishning ustuvor omillari, yo'nalishlari, istiqbolda ularning, sohaviy asosiy indikatorlari o'sish tendensiyasiga ega bo'lishini qat'iy ta'minlash darajasiga qarab mos ravishda aniqlanadi va belgilanadi. Bu yerda omillarning ta'sir darajasini baholash, unga ko'ra tanlanganlarning kelgusi davrlar uchun prognoz ko'rsatkichlarini hisoblash, erishilgan natijalar ta'siri ostida kelib chiquvchi asosiy indikatorlarning istiqboldagi o'zgarishlarini samaradorlik tamoyili asosida baholash yordamida, sohani rivojlantirish yo'nalishni belgilash imkoniyati yaratiladi.

Iste'molchiga keng qulayliklar yaratilgan savdo tizimini yo'lga qo'yish, sohaning aholi turmush tarzini yaxshilashga olib keluvchi funktsionalligini ko'paytirish, savdo xizmatlari sifatini oshirishga yo'naltirilgan faoliyatni tashkil etish, savdo korxonalarini optimal joylashtirish taqsimotini amalga oshirish, savdo tarmog'ining bandlikni ta'minlash xususiyatini kuchaytirish, tarmoqni resurs tejankor sohaga aylantirish, uning investisiya jozibadorligini oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishning muxim omillaridan biriga aylantirish innovatsion rivojlantirishning eng asosiy vazifalari hisoblanadi

### Adabiyotlar/Литература/Reference:

Abdukarimov B.A. va boshqalar. (2016) *Savdo iqtisodiyoti muammolari. O'quv qo'llanma.* - T.: Iqtisod-moliya, - 504 b.

Blondo E. (2005) *Innovatsii v roznichnoy trgovle. Biznes-jurnal.* - № 4. - S. 15-19

Do'stmirzayevich, J. R. F. (2023). A MODEL APPROACH TO LONG-TERM FORECASTING OF ELECTRICITY SUPPLY. *Journal of Integrated Education and Research*, 2(10), 41-45.

Farmon (2022) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF-60-son Farmoni 1-ilovasi.* // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son // <https://lex.uz/docs/5841063>

Fayziyev E.S. (2010) *Servis tizimi faoliyati asoslari. O'quv qo'llanma. Samarqand. "Zarafshon", -170 b.*

Harlan E.Spotts et al. (2021) *The role of paid media, earned media, and sales promotions in driving marcom sales performance in consumer services. The role of paid media, earned media, and sales promotions in driving marcom sales performance in consumer services. Journal of Business Research.* Volume 152, November, Pages 387-



397//<https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0148296322006610>

John Edwards et al. (2022) Linking B2B sales performance to entrepreneurial self-efficacy, entrepreneurial selling actions. *Journal of Business Research*. Volume 142, March, Pages 585-593 // <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0148296321009887>

Jo'rayev, F. (2023). Agroklaster tizimini optimallashtirish usullari: noaniqlikni algoritm va model yordamida minimallashtirish. *Iqtisodiyot va ta'lim*, 24(6), 306-314.

Jo'rayev, F. D., Ochilov, M. A., Rakhimov, A. M., & Doliyev, S. Q. (2023). Algorithms for improving models of optimal control for multi-parametric technological processes based on artificial intelligence. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 460, p. 04013). EDP Sciences.

Klementyeva S.V. (2006) *Primeneniye teorii nechetkix mnojestv dlya izmereniya i osenki effektivnosti realizatsii naukoymkoy produktovoy innovatsii* // *Zavodskaya laboratoriya*. T.72. №11.

Kotler Filip. (2007) *Osnovy marketinga Kratkiy kurs Per s angl — M Izdatelskiy dom "Vilyame"*, -656 s // <https://staff.ttiame.uz/storage/users/14/books/33f0TabaCBEboKiTO1qI51b0IHYmMpn1sQe7Ey9.pdf>

Maxmatqulov G'.X. (2022). Aholiga savdo xizmatlarini innovatsion rivojlantirish salohiyatini baholashda trend modellarini tanlash mezonlari (Qashqadaryo viloyati misolida). *Iqtisodiyot va ta'lim*, 23(4), 381–386. Retrieved from <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/610>

Maxmatqulov, G'. (2023). Savdo korxonalarining innovatsion faoliyatini ekonometrik modellashtirish. *Iqtisodiyot va ta'lim*, 24(6), 33-38.

Maxmatqulov, G. O. (2022). A Complex systemic issue of the development of the network of trade services. *Development and innovations in science*, 1(16), 10-13.

Maxmatqulov, G. O. X. (2023). Savdo xizmatlari tarmog 'ini rivojlantirish masalalariga tizimli yondoshuv. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(10), 175-182.

Maxmatqulov, G. O., Sayfullayev, S., & Bobomirzayev, A. (2024). Savdo xizmatlarining rivojlanish tendensiyasi asosiy ko 'rsatkichlarining ekonometrik tahlili. *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*, 2(4), 139-149.

Ohud Almutairi et al. (2020) Performance Modelling of the Impact of Cyber Attacks on a Web-based Sales System. *Electronic Notes in Theoretical Computer Science*. Volume 353, 1 November, Pages 5-20 // <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1571066120300712>

Pambuxchiyans O.V. (2014) *Organizatsiya torgovli: Uchebnik.-M.: Izdatelsko-torgovaya korporatsiya «Dashkov i K»*, -296 s

Raj Agnihotri et al. (2021) Developing benchmarks to capture relative performance for sales force incentives decisions: Lessons from B2B insurance industry. *Industrial Marketing Management*. Volume 92, January, Pages 55-71 // <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0019850120308804>

Sharf A.A. (2012) *Innovatsii v torgovle: osnovnyye problemy i puti ix resheniya. Problemy sovremennoy ekonomiki (II): materialy mejdunar. zaoch. nauch. konf. – Chelyabinsk: Dva komsomolsa*, – 210 s

Soliyev A., Buzrukxonov S. (2010) *Marketing. Bozorshunoslik. Darslik. – T.: "Iqtisod-moliya"*, -294 b

WIPO (2019) (World Intellectual Property Organization): *Global Innovation Index: India Makes Major Gains as Switzerland, Sweden, U.S., Netherlands, U.K. Top Ranking; Trade Protectionism Poses Risks for Future Innovation*// New Delhi, July 24, 2019, PR/2019/834//[https://www.wipo.int/pressroom/en/articles/2019/article\\_0008.html](https://www.wipo.int/pressroom/en/articles/2019/article_0008.html)